**O‘zbekiston Respublikasi**
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

# *60811500 - Zooinjeneriya (qoramolchilik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari*

**Toshkent -2023**

ЎзР ОЎМТВ
Буйруқ № 367
« 21 » 08 2023 йил

**IShLAB ChIQILGAN:**

- Toshkent davlat agrar universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'limning standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

# MUNDARIJA


| T/r | | bet |
|---|---|---|
| 1. | *60811500-Zooinjeneriya (qoramolchilik)* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .................................... | 4 |
| 1.1. | Qo'llanish sohasi.......................................................................... | 4 |
| 1.1.1 | *60811500 -Zooinjeneriya (qoramolchilik)* ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi...................................................................... | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari...................................... | 4 |
| 1.2. | *60811500-Zooinjeneriya (qoramolchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi ........................................ | 4 |
| 1.2.1. | *60811500-Zooinjeneriya (qoramolchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari............................................. | 4 |
| 1.2.2. | *60811500-Zooinjeneriya (qoramolchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.................................... | 5 |
| 1.2.3. | *60811500-Zooinjeneriya (qoramolchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari......................................... | 6 |
| 1.2.4. | *60811500-Zooinjeneriya (qoramolchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari........................................................ | 6 |
| 2 | *60811500-Zooinjeneriya (qoramolchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.......... | 8 |
| 2.1. | Umumiy kompetensiyalar............................................. | 8 |
| 2.2. | Kasbiy kompetensiyalar........................................................... | 8 |
| 2.3. | Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.................................... | 9 |
| 2.3.1 | Kvalifikatsiya.......................................................................... | 10 |
| 2.3.2 | *60811500-Zooinjeneriya (qoramolchilik)* bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.......... | 10 |
| 2.3.3 | *60811500-Zooinjeneriya (qoramolchilik)* bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarni qo'yidagicha klassifikatsiyalash (tasniflash) mumkin.................................................................................... | 10 |
| | Bibliografik ma'lumotlar........................................................ | 12 |
| | Kelishuv dalolatnomasi.......................................................................... | 13 |

## 1. *60811500- Zooinjeneriya (qoramolchilik)* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

*60811500 - Zooinjeneriya (qoramolchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

**1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1.** ***60811500 -Zooinjeneriya (qoramolchilik)*** **ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi**

Malaka talabi *60811500 - Zooinjeneriya (qormolchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shakslar.

**1.2.** ***60811500*** **- Zooinjeneriya** ***(qoramolchilik)*** **ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi**

**1.2.1** ***60811500*** **- Zooinjeneriya** ***(qoramolchilik)*** **ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

***60811500*** **- Zooinjeneriya** ***(qoramolchilik)*** **bakalavriat ta'lim yo'nalishi** - "Qishloq xo'jaligi" ta'lim sohasiga oid bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, u klasterlar va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish korxonalari, turli soha va tarmoqlarini boshqarish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy, rivojlantirish istiqbollarini belgilash bo'yicha iqtisodiy, tashkiliy masalalar yechimlarini qoramolchilik sohasini rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalar. Shuningdek qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish; naslchilik ishini olib borishni, ularning irsiyat va o'zgaruvchanlik belgilarining nasldan-naslga berilishini

biometrik tahlil qilish; chorva mollari uchun to‘la qiymatli oziqlantirishni tashkil etish va mustaxkam ozuqa bazasini yaratish; chorvachilik uchun bino va inshoatlarini loyihalashtirish; qoramollarini saqlash va molxonalarda mikroiqlim ko‘rsatgichlarini ta’minlash; go’sht, sut va boshqa ikkilamchi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish. tashish, saqlash, qayta ishlash va standartlash; chorvachilikda qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalarini joriy etish; qormollarni kasalliklari va ulami oldini olishni bilish; qoramolchilikda veterinariya sanitariya tadbirlarini amalga oshirish; qormolchilik sohasidan olinadigan mahsulotlaridan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish; chorvachilik sohasi va xo‘jaliklaming iqtisodiy samaradorligini hisob-kitob qilishni amalga oshirish bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2.** ***60811500 - Zooinjeneriya (qoramolchilik)*** **ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;
- boshqaruvda vaziyatli va tizmli yondashuv tamoyillarini tadbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag‘batlantirish jarayonlari;
- yer, suv, o’simliklar olami va moddiy – texnika resurslari;
- Respublika Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo’mitasi, va uning xududiy bo’limlari;
- Respublika “O’zbekchorvanasl” agentligi, viloyat va tuman hududiy bo’limlari;
- Viloyat va tuman qishloq xo’jaligi boshqarmalari;
- “O‘znaslchilik” davlat korxonasi va hududiy bo’limlari;
- zooveterinariya shaxobchalari, sun’iy urug’lantirish puntklari;
- qoramollarini tanlash, zotini yaxshilash naslchilik ishini to‘g‘ri olib borish va mahsuldorligini oshirish usullarini;
- chorvachilik ozuqa zahirasini yaratish, qoramollarini saqlash va oziqlantirish texnologiyalarni qo‘llash;
- qoramolchilik fermer xo‘jaliklarini tashkil etish;
- chorvachilik (qoramolchilik) bilan shug’illanayotgan barcha toifadagi xo’jaliklar;
-qoramolchilikda qo‘llaniladigan texnik asbob uskunalari;
- qishloq xo‘jaligi texnikalari;
- qoramolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarida ilmiy-tadqiqot jarayonlari va boshqaruv tizimlari.
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
-davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, chorvachilikning turli soha va tarmoqlarida boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
-boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondashuv tamoyillarini tadbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

-tashkilot va korxonalarda zamonoviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari.

*60811500 - Zooinjeneriya (qoramolchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'illanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning yo'nalishlari bundan mustasno.

**1.2.3. *60811500 - Zooinjeneriya (qoramolchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

**1.2.4. *60811500 - Zooinjeneriya (qoramolchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari**

60811500 - *Zooinjeneriya (qoramolchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

-fiqorolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilish, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol xayotiy nuqtai nazarga:

-dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lish, mustaqil tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida ularni xisobga ola bilish:

-xorijiytillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

-tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

-yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

-sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

-ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

-fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

-nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

-bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

-mehnat jarayonida xavfsizlikni ta`minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lish;

-pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

-ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lish lozim;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy qoramolchilik ta'lim sohasiga oid bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;

- tashkilot, korxona va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- loyihalar samaradorligini baholash;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizmlashtirish;

- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha sohaga oid axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etish.

**Tadbirkorlik faoliyatida:**

qoramolchilik sohasida yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- qoramolchilik sohasida biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. ***60811500 - Zooinjeneriya (qoramolchilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

-mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ixtisoslik fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

-ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamentlar umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qoilash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

- qoramol, va hayvonlarini urchitish, saqlash, oziqlantirish, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan zootexniyaviy tadbirlarini amalga oshirish uquviga ega bo'lish;

- chorva mollari orasida uchraydigan turli kasalliklarni oldini olish chora tadbirlarini tashkil etish;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazefalariga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ishlab chiqarish muhiti, bozor va unga xos xatarlarni, raqobot muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;

- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amalda joriy qilish borasida ***ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

**2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amalnyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar-bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar-ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqirlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi;

**O'quv amaliyoti**-talaba chorva fermer xo'jaligida qoramol va boshqa ob'yektlarni parvarishlash va corva mahsulotlarini yetishtirish hamda ishlab chiqarish jarayonidagi yangiliklar bilan tanishadi va o'zlashtiradi. Ozuqa manbalari bilan tanishish va oziqlantirishni, kasalliklarga qarshi ko'riladigan chora tadbirlarni o'zlashtiradi. Sohada yuritiladigan mi'yoriy-xuquqiy xo'jjatlar va ishlatiladigan jixozlar, uyalar, asbob-uskunalar bilan tanishish hamda ishlatish jarayonlarini o'zlashtiradi.

**Ishlab chiqarish texnologik amaliyoti** -majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

**Bitiruv ishi oldi amaliyoti** –qoramolchilikda seleksiya va naslchilik ishlarini olib borish, sun'iy urug'lantirish, urchitishva, ozuqa bazasini yaratish, ozuqlantirish va chorva

mahsulotlarini ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etish. Qoramollarda uchraydigan kasalliklar va ularga qarshi kurash choralarida bevosita ishtirok etadi. Bitiruv malakaviy ishi uchun dastlabki ma'lumotlarni to'playdi.

**2.3.1. Kvalifikatsiya:** zoomuhandis texnolog, qoramolchi

**2.3.2.** ***60811500 - Zooinjeneriya (qoramolchilik)*** **ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat | Ajratilgan kredit |
|---|---|---|
| Majburiy fanlar | 5400 | 180 |
| Tanlov fanlar | 1020 | 34 |
| Malakaviy amaliyot | 660 | 22 |
| Yakuniy davlat attestatsiyasi | 120 | 4 |

**2.3.3.** ***60811500 - Zooinjeneriya (qoramolchilik)*** **bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklari va faoliyati turlarining nomlari | Umumiy yuklama ning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | **5400** | **180** | |
| 1.01 | O'EYTB1204 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 2 |
| 1.02 | DINB1104 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 1 |
| 1.03 | FALB1604 | Falsafa | 120 | 4 | 6 |
| 1.04 | XJTNB1108 | Xorijiy til | 240 | 8 | 1,2 |
| 1.05 | O'T O'SQB1104 | O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini so-hada qo'llash | 120 | 4 | 1 |
| 1.06 | JMSB1204 | Jismoniy madaniyat va sport | 120 | 4 | 2 |
| 1.07 | OMTB1204 | Oliy matematika | 120 | 4 | 2 |
| 1.08 | ANFKBKB1206 | Analitik, fizkolloid va biokimyo | 180 | 6 | 2 |
| 1.09 | QXAKTB1104 | Qishloq xo'jaligida axborot-kom-munikatsion texnologiyalar | 120 | 4 | 1 |
| 1.10 | MTKB1104 | Mutaxassislikka kirish | 120 | 4 | 1 |
| 1.11 | HGBTB1110 | Hayvonlar morfologiyasi va fiziologiyasi | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.12 | ZOOGB1106 | Zoogigiena | 180 | 6 | 1 |
| 1.13 | QXHUB1312 | Qishloq xo'jalik hayvonlarini ur-chitish | 360 | 12 | 3,4 |
| 1.14 | HMKBMKB1308 | Hayvonlar mikrobiologiyasi va mikologiyasi | 240 | 8 | 3,4 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.15 | HGBTB1306 | Hayvonlar genetikasi va biotexnologiyasi | 180 | 6 | 3 |
| 1.16 | CHMXNAB1306 | Chorvachilikni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish | 180 | 6 | 3 |
| 1.17 | YASHB1406 | Yaylovshunoslik | 180 | 6 | 4 |
| 1.18 | QBETB1406 | Qoramollar biologiyasi va etologiyasi | 180 | 6 | 4 |
| 1.19 | VETAB1508 | Veterinariya asoslari | 240 | 8 | 5,6 |
| 1.20 | ASURG‘B1510 | Akusherlik va sun’iy urug‘lan-tirish | 300 | 10 | 5,6 |
| 1.21 | QXHOZB1510 | Qishloq xo‘jalik hayvonlarini oziqlantirish | 300 | 10 | 5,6 |
| 1.22 | QMICHSQIT1508 | Qoramolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi | 240 | 8 | 5,6 |
| 1.23 | QORCHB1710 | Qoramolchilik | 300 | 10 | 7,8 |
| 1.24 | QORNIB1710 | Qoramolchilikda naslchilik ishi | 300 | 10 | 7,8 |
| 1.25 | QBIDNB1706 | Qoramollar bonitirovkasi va identifikatsiyalash | 180 | 6 | 7 |
| 1.26 | SUTISHB1806 | Sutchilik ishi | 180 | 6 | 8 |
| 1.27 | QORSISB1806 | Qoramollar sistematikasi | 180 | 6 | 8 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar:** | **1020** | **34** | |
| 2.00 | | Tanlov fanlar | 1020 | 34 | 3,4,5,7,8 |
| | | **Jami:** | **6420** | **214** | |
| | MALAMAL1222 | Malakaviy amaliyot | 660 | 22 | 2,4,6,7 |
| | | Yakuniy davlat Attestatsiyasi | 120 | 4 | 8 |
| | | **Jami:** | **780** | **26** | |
| | | **Hammasi:** | **7200** | **240** | |

**Bibliografik ma'lumotlar**

UO'K 636 Guruh T 55

ORS 01.040.01

---

**Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, uqib-o'rganish natijalari, bakalavrlar, o'quv davri zooinjeneriya, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatini baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayoni.

## Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar istemolchilari

**IShLAB ChIQILGAN:**

**Toshkent davlat agrar universiteti**

Birinchi prorektori ____________ **S.Ya.Islamov**

2023 yil «__10__» ___07_____

M.O'.

**KELIShILDI:**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor ____________ **Sh.Yakubov**

2023 yil «__21__» ___08_____

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi**

Birinchi o'rinbosari ____________ **Sh.A.Djabborov**

2023 yil «__17__» ___07_____

M.O'.

**"O'ZNASLCHILIK" davlat korxonasi**

Direktor ____________ **O.E.Mamatqulov**

2023 yil «__17__» ___07_____

M.O'.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

Rektor ____________ **X.B.Yunusov**

2023 yil «__19__» ___07_____

M.O'.

**"TCT FISH Cluster" MChJ**

Direktor ____________ **M.M.Razzoqov**

2023 yil «__20__» ___07_____

M.O'.

**Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti**

Direktor ____________ **A.Nurmatov**

2023 yil «__20__» ___07_____

M.O'.

**Toshkent davlat agrar universiteti 60811500 – Zooinjeneriya (qoramolchilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarini va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

## KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh. "10.07. 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, professor S.Y.Islamov, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori X.B.Yunusov, Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori A.Nurmatov, birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60811500 – Zooinjeneriya (qoramolchilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari xamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida"gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot soxalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari tugrisida"gi PD-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ulariing mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-279-son qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan quyilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori** **A.Nurmatov**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori** **X.B. Yunusov**

**Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori** **S. Islamov**